Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki ularning shaxsiy-rivojlantiruvchi va refleksiv faoliyatini ta'minlovchi kompetensiyalarni shakllantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchining bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini yo'naltiruvchi, hamkorlikka asoslangan muhitni tashkil etuvchi fasilitator sifatidagi roli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kredit-modul tizimi bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida fasilitatorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni o'zida mujassam etadi. Mazkur jarayonda talabning subyektiv faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, emotsional-intellektual yetukligi hamda refleksiv tafakkurining rivoji muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular fasilitatorlik kompetensiyalarining psixologik asoslarini tashkil etadi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy va psixologik jihatdan murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Ta'lim va tarbiya integratsiyasi sharoitida mazkur faoliyat o'quvchilarning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy xulq-atvori va fuqarolik ongini shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik ta'sirni nazarda tutadi. Bu jihatdan tarbiya fani o'qituvchisi shaxs rivojini boshqaruvchi va ijtimoiylashuv jarayonini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy faoliyatning psixologik mazmuni shundan iboratki, tarbiya fani o'qituvchisi o'quvchining ichki ehtiyojlari, emotsional holati va ijtimoiy tajribasini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta'sirni amalga oshiradi. Lev Vygotskiy ta'kidlaganidek, shaxs rivoji ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va pedagog ushbu jarayonni ongli ravishda tashkil etuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati muloqot, hamkorlik va refleksiyaga asoslangan pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liqdir.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar pedagogik nazariyada kompleks xarakterga ega bo'lib, ular kasbiy-bilimiy, psixologik va ijtimoiy-kommunikativ komponentlar birligida namoyon bo'ladi. Vladimir Slastenin pedagog kasbiy faoliyatining samaradorligini shaxsiy sifatlar, kasbiy bilim va pedagogik mahoratning



o'zaro uyg'unligi bilan izohlaydi. Ushbu yondashuv tarbiya fani o'qituvchisiga nisbatan qo'yiladigan talablarning tizimli xarakterini asoslab beradi. Kasbiy-bilimiy jihatdan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi tarbiya nazariyasi, yosh psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur egallagan bo'lishi lozim. Psixologik talablar esa empatiya, emotsional barqarorlik, pedagogik sezgirlik va refleksiv fikrlash kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-kommunikativ talablar doirasida esa muloqot madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlikka tayyorlik tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda o'qituvchining tarbiyaviy faoliyati jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi sifatida e'tirof etilib, uning kasbiy kompetensiyalariga yuqori talablar qo'yilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy yetukligi va kasbiy mas'uliyati ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati shaxs rivojini ta'minlashga yo'naltirilgan murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, u yuqori darajadagi kasbiy bilim, psixologik yetuklik va ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarni talab etadi. Ushbu faoliyatga qo'yiladigan talablar o'qituvchini tarbiyaviy muhitni tashkil etuvchi, muloqotni boshqaruvchi va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi fasilitator sifatida shakllantirish zaruratini asoslaydi. Zamonaviy ta'lim nazariyasida tayanch kompetensiyalar shaxsning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi universal sifatlar majmui sifatida talqin etiladi. Ular alohida fan doirasidagi bilimlar bilan cheklanmay, balki shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muloqotga kirishish, moslashish va o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan tayanch kompetensiyalar ta'lim mazmunining integrativ natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot ishimiz doirasida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining fasilitatorlik kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish, avvalo, fasilitatsiya, kompetensiya va kompetentlik, fasilitatorlik kompetensiyasi tushunchalarining mazmuniga oydinlik kiritishni taqozo etadi. Ta'lim jarayoni shaxsning faolligi, mustaqil fikrlashi va ichki salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida o'qituvchining an'anaviy bilim uzatuvchi rolini ta'lim oluvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, yo'naltiruvchi va hamkorlikka asoslangan pedagogik pozitsiya sifatida namoyon etmoqda. Mazkur jarayonda fasilitatsiya tushunchasi ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim ilmiy-nazariy kategoriyasi sifatida mavjudligini anglatadi.

Ilmiy manbalarda fasilitatsiya shaxsning o'zini anglash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va mustaqil rivojlanishini ta'minlovchi qulay pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyat sifatida izohlanadi. Ilmiy terminologiyada "fasilitatsiya" (ingl. facilitate - osonlashtirish, ko'maklashish) tushunchasi dastlab ijtimoiy psixologiyada shaxsning boshqalar ishtirokida o'z faoliyati samaradorligini oshirishi (ijtimoiy fasilitatsiya) sifatida tadqiq etilgan. Biroq, uning gumanistik pedagogikaga kirib kelishi bevosita Carl Rogers nomi bilan bog'liq bo'lib, u ta'lim oluvchining ichki resurslarini faollashtirishni o'qituvchining asosiy vazifasi deb belgilaydi.

K. Rogers fasilitatsiyani shaxs rivojiga to'sqinlik qilmasdan, balki uning tabiiy o'sishini qo'llab-quvvatlash jarayoni sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, o'qituvchi ta'lim oluvchi shaxsini boshqaruvchi emas, balki ishonch, empatiya va ochiq muloqot orqali ta'lim jarayonini yengillashtiruvchi subyekt bo'lishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, fasilitatsiya g'oyasi pedagogika, psixologiya va menejment sohalarida dastlab darhol e'tirof etilmagan. Carl Rogers o'zining Freedom to Learn ("Свобода учиться") asarida "o'rganish fasilitatori" ("фасилитатор учения") tushunchasini o'qitish amaliyotida real emas, hatto fantastik holat sifatida qabul qilinishi mumkinligini qayd etadi, biroq o'z tadqiqotlari orqali buning aksini isbotlaydi. Uning fikricha, fasilitatsiyalovchi ta'lim erkinlik, ijodkorlik va mas'uliyat muhitini yaratadi, chunki fasilitator ta'lim jarayoni, o'quv faoliyatini rejalashtirish hamda boshqaruv usullari bo'yicha mas'uliyatni ta'lim oluvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan bo'lishadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, jumladan, E.F. Zeer, I.V. Jijina, M.N. Dudina, V.V. Kolpachnikov, R.V. Ovcharova, L.N. Kulikovalar fasilitatsiya konsepsiyasining nazariy hamda amaliy jihatdan ahamiyatini tadqiq etadilar.

Pedagogik nazariyada fasilitatsiya tushunchasi konstruktivistik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyalari bilan uzviy bog'liq. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki talabning faol ishtiroki, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. O'qituvchi esa bu jarayonda bilim manbai emas, balki o'rganish jarayonini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi fasilitator sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat fasilitatsiyani metod yoki texnika emas, balki pedagogik tafakkur va kasbiy pozitsiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Fasilitatsiya bu keng ma'noda guruh yoki shaxsning maqsadga erishish -jarayonini osonlashtirish, muloqotdagi to'siqlarni bartaraf etish va ishtirokchilarning potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan professional faoliyatdir. Pedagogik fasilitatsiya esa ushbu jarayonning ta'lim muhitiga adaptatsiya qilingan shakli bo'lib, u o'qituvchi va talaba o'rtasidagi an'anaviy diktatni inkor etadi.

S. Uitdet va S. Hollifordning kompetensiyaviy yondashuviga tayanib aytish mumkinki, pedagogik fasilitatsiya – bu talabada “o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj”ni uyg‘otish mahoratidir.

Xususan, tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida fasilitatsiya tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-kommunikativ faolligi, qadriyatlar tizimi va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik fasilitatsiya quyidagi fundamental xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- psixologik xavfsizlik muhitini yaratish: fasilitator-o‘qituvchi talabani xato qilish huquqini tan oladi, bu esa tanqidiy fikrlash (critical thinking) jarayonini blokirovka qiluvchi qo‘rquv omilini bartaraf etadi;
- kognitiv stimulyatsiya: pedagogik fasilitatsiya jarayonida bilim tayyor holda berilmaydi, balki muammoli savollar va loyihalar orqali “kashf qilinadi”. Bu o‘rinda fasilitator axborot manbai emas, balki kognitiv jarayonning moderatori sifatida namoyon bo‘ladi;
- emotsional qo‘llab-quvvatlash (empatiya): Carl Rogers ta‘kidlaganidek, fasilitatsiyaning muvaffaqiyati o‘qituvchining “haqqoniyligi” va talabani shaxs sifatida qabul qilishiga bog‘liq.

Keltirilgan ilmiy mulohazalar pedagogik fasilitatsiyaning mohiyatini ochib beruvchi uchta fundamental xususiyatni ajratib ko‘rsatadi va ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligini asoslaydi. Avvalo, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish ta‘lim jarayonida talabani xato qilish huquqini tan olish orqali qo‘rquv va ichki to‘siqlarni bartaraf etadi hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydi. Bu holat talabani bilishga bo‘lgan faolligini oshirib, kognitiv jarayonlarning erkin kechishiga xizmat qiladi.

Kognitiv stimulyativlik pedagogik fasilitatsiyaning faoliyatga yo‘naltirilgan xarakterini namoyon etadi. Bilimning tayyor shaklda berilmasligi, balki muammoli vaziyatlar, savollar va loyihalar orqali “kashf etilishi” talabani intellektual mustaqilligini rivojlantiradi. Bunda fasilitatorning axborot manbai emas, balki bilish jarayonini boshqaruvchi moderator sifatidagi roli yaqqol ko‘zga tashlanadi. Emotsional qo‘llab-quvvatlash va empatiya pedagogik fasilitatsiyaning shaxsga yo‘naltirilgan mohiyatini ifodalab, o‘qituvchining haqqoniyligi va talabani shaxs sifatida qabul qilishi ta‘lim jarayonida ishonch muhitini shakllantirib, talabani o‘zini erkin namoyon etishiga imkon yaratishini nazarda tutadi. Umuman olganda, ushbu xususiyatlar pedagogik fasilitatsiyani talabani kognitiv, emotsional va shaxsiy rivojini uyg‘un holda ta‘minlovchi samarali pedagogik yondashuv sifatida tavsiflaydi.

Shuningdek, G. Cheetham va G. Chiversning “professional kompetentlik” modeli doirasida pedagogik fasilitatsiya o‘qituvchining meta-kompetensiyasi sifatida talqin qilinib, pedagogik vaziyatni boshqarish va muloqot strategiyalarini moslashuvchan (flexible) tanlash imkonini berishi mumkinligi ta‘kidlanadi. “Kompetensiya” (lotincha so‘z bo‘lib, “erishaman”, “to‘g‘ri kelaman” ma‘nolarini bildiradi) - subyektning maqsadni qo‘yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

N.M. Muslimovning qarashlariga ko‘ra, inglizcha “competence” tushunchasi “qobiliyat” ma‘nosidan kelib chiqqan bo‘lib, amaliy faoliyat tajribasi va pedagogik mahoratni ham o‘zida mujassam etadi.

N.V. Tarasova tadqiqotlarida “kompetensiya” tushunchasi “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasidagi aloqadorlikni ta‘minlash imkonini beradigan bilim, qadriyat va layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etiladi.

Demak, kompetensiya muammoni hal etishga yo‘naltirilgan faoliyatning integrativ mexanizmini anglatadi. Bu esa kompetensiyani faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki bilimning faoliyatga o‘tish jarayonini ta‘minlovchi umumiy qobiliyat sifatida tushunishni ta‘minlaydi.

E.M. Korotkovning ilmiy izlanishlarida kompetentlik tushunchasi “shaxs faoliyatining ma‘lum turlarida bilimlarni ishlatish qobiliyati, ma‘lumot bilan ishlash ko‘nikmalari” sifatida talqin etiladi.

E.F. Zeerning tadqiqotlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o‘rtasidagi farqlar quyidagicha tahlil etiladi: “umumiy bilim, ko‘nikma va tajriba shaxsning kompetentlik sohasini belgilab beradi. Ushbu bilim, ko‘nikma va tajribani muayyan ijtimoiy-kasbiy vaziyatda aniq qo‘llay olish kompetensiyani namoyon etadi”. Shunday qilib, kompetensiya potensial standart, kompetentlik esa mutaxassisning o‘zgaruvchan vaziyatlarda ushbu standartlarni refleksiv qo‘llay olish mahoratini anglatadi.

Boshqaruv psixologiyasi namoyandasi Richard Boyatzisning ilmiy izlanishlarida esa kompetentlik funksional samaradorlik bilan bog‘lanadi. Uning talqinicha, kompetentlik shaxsning o‘ziga xos xarakteristikalarini (qobiliyatlar, xulq-atvor modellari) va ish faoliyatining aniq natijalari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘indir. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mazmunan o‘zaro bog‘liq, biroq ularning ilmiy mohiyati, funksional vazifasi hamda ta‘lim natijalarini tavsiflashdagi roli jihatidan muayyan farqlar mavjud. Ushbu farqlanishni aniqlashtirish dissertatsiya tadqiqotimizning metodologik aniqligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tadqiqotchilar F. Delamare-Le Deist va J. Wintertonning ta'kidlashicha, kompetensiya tushunchasi faqatgina texnik mahorat bilan cheklanib qolmay, balki kognitiv, funksional va ijtimoiy meta-kompetensiyalarning yaxlit birikmasini ham ifodalaydi. Ya'ni, kompetensiya bu tizimli yaxlitlik bo'lib, u shaxsning nafaqat muayyan vazifani bajarishini, balki kutilmagan muammolarga yechim topish strategiyasini ham belgilaydi.

S. Uitdet va S. Holliford kompetentlikni "shaxsning o'lchanishi mumkin bo'lgan xulq-atvor modellari" sifatida tahlil qiladi. Ularning qarashlariga ko'ra, "kompetensiya" ish joyining (yoki muayyan pozitsiyaning) tavsifi bo'lsa, "kompetentlik" shaxsning ushbu pozitsiyada namoyon etadigan real xulq-atvoridir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ilgari surilgan "DeSeCo" (Definition and Selection of Competencies) loyihasi doirasida kompetentlik tushunchasi mazmuni "refleksiv yondashuv" bilan uyg'unlashtiriladi.

Ushbu yondashuvga ko'ra, kompetentlik – bu murakkab talablarni qondirish uchun shaxsning psixologik resurslari va mahoratini muayyan kontekstda safarbar eta olish qobiliyatidir. Britaniyalik olimlar G. Cheetham va G. Chivers tomonidan ishlab chiqilgan yaxlit professional kompetentlik modeliga ko'ra ushbu tushunchaning kognitiv, funksional, shaxsiy (etika va munosabat) va meta-kompetentlik (o'z-o'zini o'qitish) kabi tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatiladi. Bu kompetentlikning nafaqat bilimga, balki shaxsning qadriyatlar tizimiga ham asoslanishini tasdiqlaydi. Kompetentlik tushunchasini operatsional darajada tahlil qilish uning ichki elementlari o'rtasidagi funksional aloqalarni aniqlashni taqozo etadi.

Xususan, L. Spencer va M. Spencer tomonidan ilgari surilgan "Muztog'i modeli" (Competency Iceberg Model) bo'yicha kompetentlik yuza va chuqur qatlamlar kabi ikki qatlamga bo'linadi. Ushbu modelga ko'ra, mutaxassisning bilimlari va ko'nikmalari muztog'ining yuza (ko'rinadigan) qismini tashkil etib, ularni shakllantirish va o'lchash nisbatan oson. Biroq, kompetentlikning asosi – uning chuqur qatlamida joylashgan ijtimoiy rollar, shaxsiy sifatlar va ichki motivlar bo'lib, aynan ular uzoq muddatli samaradorlikni belgilab beradi.

J. Westera tadqiqotlarida kompetentlikning kognitiv va amaliy komponentlari o'rtasidagi bog'liqlik "kontekstuallik" prizmasi orqali ko'rib chiqiladi. Muallifning fikricha, bilim passiv resurs bo'lsa, kompetentlik bilimning muayyan vaziyatdagi "faol shakli"dir. Bu kompetentlikni "bilim + harakat + munosabat" formulasi orqali ifodalash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni inson qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil yot g'oyalar, mafkuralar va tajovuzlardan asrab qolish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda".

Bugun yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida barcha sohalar kabi ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya sohasi ham innovatsiyalarga muhtoj. Yevropada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Rossiyada yoshlar tarbiyasining ilmiy strategiyalari bilan shug'ullanadigan yuzlab tashkilot, fond va assotsiatsiyalar mavjud. Ularning tajribasini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarini olib kelib, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maqsadlarida foydalanish oliy ta'lim modernizatsiyasining muhim talablaridan biri bo'lib turibdi. Zero, olib borilayotgan barcha islohotlar, Taraqqiyot strategiyamizning samaradorligi inson omiliga, uning ma'naviyatiga bog'liq. Shu sababli milliy g'oya, g'oyaviy tarbiya va ma'naviyat-ma'rifat masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

G'oyaviy tarbiyaga befarq va loqayd bo'lgan millat va mamlakatlar yer yuzidan nomi va o'zi yo'qolib ketishiga sabab bo'lsa, yoshlarni zamonaviy milliy g'oya ruhida tarbiyalagan millat bardavom yashaydi. Shu sababli xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi va tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi muhim masala hisoblanadi.

G'arb davlatlari hayotning turli sohalarida, xususan, madaniy hayotda yuz berayotgan inqiroziy jarayonlarga xolis yondashayotgan mutaxassislar G'arb dunyosi halokat tomon borayotganligini qayg'u bilan qayd etmoqdalar. Jamiyatimizga o'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlarini qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymonlilik, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik kabi milliy-ma'naviy hislatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning axloq, andisha, sharm-u hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat" yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Mamlakatimizning kelajagi, Yangi O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, saviyasi, fidoiyligi, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassa-

tasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, avvalambor, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy merosiga tayanadi. Zero, bu meros milliy mafkura va ma'naviyatimizning mustahkam manbaidir.

Bugungi kun talabasi, bo'lajak mutaxassislarni g'oyaviy tarbiyalash ilgari qo'yilmagan yangi vazifani amalga oshirishni talab qiladi. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, endi ulardan ana shu bilimlarini hayotda qo'llashni o'rgatish talab etiladi. Zero, g'oyaviy tarbiya o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra talaba-yoshlarni ijtimoiy faol mutaxassislar etib tarbiyalashni ko'zda tutadi. Modernizatsiyalashgan g'oyaviy tarbiya g'oyaviy hushyorlikni, kompetensiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquvlari va xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning texnologik komponentlari aholi va yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar hamda mustahkam mafkuraviy immunitetni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi usul va uslublarni anglatadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar texnologiyasining mazmunini oilada, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, harbiy qismlarda, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, barcha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan quyidagi yo'nalishlar tashkil etadi:

- mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini, muxlislik madaniyatini har tomonlama rag'batlantirib borish, xalqimizning turli qatlamlari orasida kino va teatr san'atining ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;
- oila, mahalla, maktab, akademik litsey, oliy o'quv yurtlari va ta'limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta'sirchan usullar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish;
- xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy va diniy qadriyatlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;
- ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullari malakasini oshirish tizimini yaratish, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish, zaxiraga qo'yilgan kadrlar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida ilg'or tajribalar va innovation g'oyalarni hayotga joriy etishni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish;
- bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalarga mo'ljallangan, milliy ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlangan hamda ma'rifiy yo'nalishdagi dolzarb mavzulardagi hujjatli va badiiy filmlar, shuningdek, o'quv filmlari yaratish ishlarini tashkil qilish;
- yoshlar bilan ishlashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, bu borada zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida samarali mexanizmlarni yaratish;
- aholi va yoshlarning ma'naviy-axloqiy, siyosiy-ijtimoiy, diniy masalalarga oid ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy muhit va jamoatchilik kayfiyatini o'rganish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish shular jumlasidandir.

OTMlardagi tarbiya tizimi nazariyasi va amaliyotini o'rganish, tizimning zamonaviy faoliyatini tahlil etish, pedagogik va boshqa ilmiy adabiyotlarni kompleks o'rganish talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimi faoliyatini tashkillashtirishda didaktika va tarbiya nazariyasi inobatga olinishini ko'rsatadi.

Talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimiga qo'yiluvchi asosiy talablar quyidagi tamoyillarda o'z aksini topadi:

- maqsadga muvofiqlik tamoyili - tizimning ma'lum konsepsiyalar, bosh g'oya, dasturlar va vazifalar maqsadlariga mos ravishda tashkiliy-tuzilmaviy qurilishi;
- integrativlik tamoyili - tizimning alohida differentsiyalashgan qismlari va funksiyalarining bir butunlikka birlashishini taqozo etadi hamda ushbu jarayonga yaxlitlik bag'ishlaydi;
- tarbiyalovchi ta'lim tamoyili - talabalarning shaxsiy rivojlanishi, o'zi ustida ishlashi uchun ijobiy motivatsiyaning shakllanishi va o'qishdan tashqari ijodiy-amaliy faoliyatga yo'naltirish maqsadida o'qitilayotgan fanlar mazmunidagi tarbiyaviy potentsialdan faol foydalanish;
- professor-o'qituvchilar va guruh murabbiylariga qo'yiluvchi talablarning bir xilligi tamoyili - tarbiyaviy jarayonning barcha obyektlari talablarining o'zaro kelishilgan bo'lishini nazarda tutadi;



- adaptivlik tamoyili - pedagogik tizimni tashqi va ichki omillar hamda sharoitlarga moslashtirish orqali amalga oshadi;
- tarbiyaviy tizimlarning faoliyati va rivojlanishining konseptual jihatlarini asoslashda ilmiylik tamoyili - ilmiy yondashuv;
- kasbiy yo'nalganlik tamoyili - bo'lajak mutaxassislar tomonidan kasbiy jamiyatning ma'naviy-axloqiy qoidalarini o'zlashtirish;
- talabalarni kasbiy tarbiyalash tizimi faoliyatining tizimlilik, davomiylik va uzluksizlik tamoyili barcha vazifalarni kompleks bajarib, muvozanatsizlik va tarqoqlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikrlar zamonaviy g'oyaviy tarbiyani modernizatsiyalashda qator muammolarni hal etishni taqozo etadi. Jumladan:

- jamiyat hayotida keng ko'lamli mafkuraviy axborot muhiti yaratish;
- yoshlarda milliy g'oyaga doir bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish va bu bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- yoshlar ongida milliy g'oyani singdirishning pedagogik asoslarini zamonaviylashtirish;
- oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ko'lami hamda sifatini oshirish va ularning hayotiyligini ta'minlash shular jumlasidandir.

Zero, dunyodagi mafkuraviy tortishuvlar va axborot xurujlari o'sib kelayotgan yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash oldiga yangi, zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim muassasalarida yot mafkuralarning ta'sirini zararsizlantirish zarurati alohida ta'kidlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar muayyan tamoyillarga tayangandagina o'z samarasini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga milliy mafkuraviy yo'naltirilganlik, nopartiyaviylik, ta'lim va tarbiya birligi, hayotiylik, integrallik, ong va xulq-atvor birligi, amaliylik, ommaviylik, talabalar tashabbusini rag'batlantirish, yaxshi fazilatlarini rag'batlantirish, ma'naviy illatlarga qarshi "Jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurashish, talabalarning bo'lajak kasbiy xususiyatlarini inobatga olish va uzviylik kabilar kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kun talabasi, bo'lajak mutaxassislarni g'oyaviy tarbiyalash O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri talablari asosida ilmiy-pedagogik jihatdan modernizatsiyalashuvni hamda talabalarni mustaqil kasbiy-ma'naviy hayotga tayyorlashni talab qiladi. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, modernizatsiyalashgan g'oyaviy tarbiya g'oyaviy hushyorlikni va kompetensiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquvlari hamda xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi.

Zero, hozirgi bosqichda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish talabalardan ma'naviy-axloqiy fazilatlar mazmunini bilishnigina emas, balki ularni o'zining kundalik amaliy faoliyatida qo'llash uquviga ega bo'lishni ham talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: 1059-son qaror. 2019-yil 31-dekabr. - Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida: 422-son qaror. 2020-yil 6-iyul. - Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PQ-4884-son qaror. 2020-yil 6-noyabr. - Toshkent.
4. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori.
5. Abdullayeva B. va boshq. Umumiy pedagogika. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. Ismatova N. va boshq. Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. - Toshkent: Novda, 2023.
7. Farsaxonova D.R. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. - Toshkent: Ilm nuri print, 2025.
8. Farsaxonova D.R. Talabalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish texnologiyasi. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
9. Farsaxonova D.R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. - Toshkent: Fan ziyosi, 2022.
10. Farsakhanova D. About the use of interactive methods in developing students' speech // Архив научных публикаций JSPI. - 2020.
11. Farsakhanova D.R. The technology of spiritual and moral education of students: teaching guide. - Tashkent, 2009. - 104 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.